

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-sentabrda Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YaHM) hajmi joriy narxlarda 12 834,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilning mos davriga nisbatan 6,0 % ga o'sdi.


2019-yil yanvar-sentabr oylari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6 827,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,4 % ga oshdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	mlrd. so'm		2018-yil yanvar-sentabr nisbatan % da
	2018-yil yanvar-sentabr	2019-yil yanvar-sentabr	
I. YaHM	10 281,7	12 834,8	106,0
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	9 422,1	11 519,5	105,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	859,6	1 315,3	106,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	9 422,1	11 519,5	105,9
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 389,4	2 712,2	103,4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 873,5	4 713,8	107,2
sanoat	3 153,8	3 582,4	102,5
qurilish	719,7	1 131,4	128,0
Xizmatlar	3 159,2	4 093,4	106,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	549,2	640,9	103,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	671,5	756,0	108,9
boshqa xizmat tarmoqlari	1 938,5	2 696,6	106,1

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining o'sish sur'ati – 103,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi 23,5 %), sanoat (qurilishni qo'shgan holda) – 107,2 % (40,9 %) hamda xizmatlar tarmog'i – 106,3 % (35,6 %).

2019-yilning yanvar-sentabrida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 89,8 % ni, mahsulotlarga sof soliqlarning esa 10,2 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 1,9 % punktga kamaydi va hisobot yilida 23,5 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 0,2 % (40,9 %) punktga kamaydi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2019-yil yanvar-sentabrda 35,6 % ni tashkil etdi va 2018-yil mos davri (33,5 %) bilan taqqoslanganda 2,1 % punktga oshdi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018-yil yanvar-sentabr



2019-yil yanvar-sentabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni ko'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 5,6 % ni (2018-yil. yanvar-sentabr – 5,8 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 6,6 % ni (7,1 %), xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 23,4 % ni (20,6 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018-yil yanvar-sentabr



2019-yil yanvar-sentabr



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko`rsatuvchi boshqa tarmoqlar

**Statistika faoliyatini tashkil etish va yig`ma
axborot-tahliliy ishlar bo`limi**

Tel.: (0-361) 222-74-58;

(0-371) 230-82-03